

"Xotira maydoni"ga tashrif

☒ Ko'rish va kuzatish, tashrif va takliflar bilishga, ma'lumotlarga ega bo'lib katta taassurotlar uyg'onishiga bois bo'lishi aniq. Shuning uchun ham jam bo'lib hamjihatlikda diqqatga sazovor joylarga borish mohiyatan ahamiyatlidir. TIQXMMning "Gidromelioratsiya" fakulteti Kasb ta'limi (Suv xo'jaligi va melioratsiya) yo'nalishi 3-bosqich 18-guruh talabalari "Qurilish mexanikasi" fanidan nazariy olingan bilimlarni amaliy mustahkamlash maqsadida "Nazariy va qurilish mexanikasi" kafedrasida katta o'qituvchisi E.S.Toshmatov bilan birgalikda Toshkent shahrida joylashgan "Xotira maydoni"ga borishdi. U yerda "Qurilish mexanikasi" ga oid fermasimon ko'prikning tuzilishi to'g'risida ko'plab ma'lumotlar olishdi. Talabalar amaliy taassurotlarga ega bo'lishdi. Bu albatta, xayrli va ma'rifiy harakatning barhayotligining nishonasidir.

Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov